

МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 1 / 1 2021 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:
A. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:
Максет АЙЫМБЕТОВ
Нагмет АЙЫМБЕТОВ
Кенесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ
Өсөрбай ЭЛЕУОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Кенесбай Даулетяров
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Батырбек КАЙПБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестириүшилер:
Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендіриү
Министрлігі, ӨЗПИИ
Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қаравы менен
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм
хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-саналы гүйділдік
берилген.
Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uznipnkf@mail.uz,
mugallim-pednauk@mail.uz
www.mugallim-uziksiz-bilim.uz

Журналга келген мақалаларға жеүап қайтарылмайды, журналда жетрояланған мақалалардан
алынған үзиндер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендіриү» журналынан алыны, деп корсетилиғи
шарт. Журнала 5-бет колеміндеғи материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шириф-
тіндегі электрон версиясы менен бирге қабыл етіледи. Мақалада көлтирилген мәглүмәттердегі автор
жекуапкер.

МАЗМУНЫ

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӨРБИЯ

Mardonov Sh.Q., Abdullayev A.A. Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab hamkorligi	4
Mahmudova D.B. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi	8
Shanasirova Z.Yu. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagি bolalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish	13
Abdullayeva M.Dj. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlар	17
Narimbayeva L.K. Maktabgacha yoshdagи bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning ahamiyati	20
Nosirova R.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasining mohiyati	22
Kolmatova S.K. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda Sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish ahamiyati	26
Maripova N.H. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya	28
Sanakulova A.R. Maktabgacha ta'lim muassasalarida rahbarlarida huquqiy tarbiyanı rivojlantirish	31
Teshabayeva Z.S. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi	34
Nasirova Z.X. O'yin turlari: ijodiy o'yinlar, qoidalı o'yinlar, milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari	38
Shanasirova Z.Yu. Maktabgacha yoshdagи bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ahamiyati	43
Jo'raboyev A.B. Maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy qadriyatlarini singdirish amaliyoti	48
Abdullayev A.A. Maktabgacha ta'lim muassasalarida rahbarlik qilish va tashkil etishning zamonaviy usullari	51
Achilova M.S. Maktabgacha ta'lim muassasalarida estetik tarbiyaning mazmuni	55
Ochilov F.I., Xusanova N.B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish talablari	58
Narimbetova Z.A., Asqarova N.J. Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlarning ahamiyati	62
G'ulomova X. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida maqollar estetikasi	67
Умарова З.А. Бошлангич таълимда педагогик жараён	70
Жабборова О.М., Сайдғаниева З.С. Бошлангич таълим педагогикаси: мазмун ва моҳият	74
Quzmanova G.B., Ergasheva M.E. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarida ota-onalar yig'ilishini samarali tashkil etish	78
Мамадалиев К.Р. Бошлангич таълим йўналиши ўкув фанлари тузилмаси ва замонавий ўкув адабиётларини яратиш принциплари	80
Тожибоева Г.Р., Крымская Э. Проблемы развития творческих способностей в процессе становления будущего учителя начальных классов	86

ТИЛ ХЭМ ӘДЕБИЯТ

Матчонов С., Холиқулова Ф. Ўқувчиларнинг нуткий кўнижмаларини шакллантириша матннинг лингводидактик таҳлили	91
Шерматова У.С., Жабборова О. М. Самостоятельное чтение и интерпретация правды жизни	95

borilgan bolalar o'quv vazifasini yaxshiroq anglab oladilar, bu ulardag'i ixtiyoriy diqqatni oshiradi, faoliyatni faollashtirib, bilishga qiziqishni kuchaytiradi.

Adabiyotlar:

- Maxmudova O.A., Maxmudova S.A. «Maktabgacha ta'limgiz tizimida plastik materiallar bilan ishslash texnologiyalari». O'quv qo'llanma. «NISO POLIGRAF». Toshkent, 2019-120b.
- Maxmudova O.A. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatish metodikasi». O'quv qo'llanma. «NISO POLIGRAF» Toshkent, 2019 y.-152 b.
- Kumon Publishing. Geometry & Measurement Grade 1 PDF Math Workbook, Kumon Publishing, 2008 USA, – 80 p
- Djuraeva D.R. Maktabgacha ta'limgiz yoshdagi bolalarga ta'limgiz-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari. Uslubiy qo'llanma - T.: 2015

РЕЗЮМЕ

Mamlakatimizda mustaqillik yo'lidagi ilk qadamlardanoq jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan siyosit va iqtisodiy tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ta'limgiz sohasida, jumladan uning birinchi pog'onasi hisoblanmish maktabgacha ta'limgiz sohasida ham katta o'zgarishlar qilinmoqda. MTM bilan matab o'rtaqidagi izchillik ta'limgiz shakl va uslublarida ham bu o'z aksini topgan. Bugungi kunda ushbu izchillik dozlarb masaladir. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limgiz muassasasi va matab xamkorligi yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

С первых же шагов на пути к независимости наша страна претерпела радикальные политические и экономические реформы, которые охватывают все сферы жизни общества. Существенные изменения происходят в сфере образования, в том числе дошкольного образования, что является его первым шагом. Согласованность между ДВО и школой отражается в формах и методах обучения. Сегодня эта консистенция зависит от дозировки. В этой статье обсуждается партнерство дошкольных и школьных учреждений.

SUMMARY

From the very first steps on the path to independence, our country has undergone radical political and economic reforms that cover all spheres of society. Significant changes are taking place in the field of education, including pre-school education, which is its first step. The coherence between PSE and the school is reflected in the forms and methods of education. Today, this consistency is a matter of dosage. This article discusses preschool and school partnerships.

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА QO'LLANILADIGAN O'YINLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Mahmudova D.B.

TVChDPI Maktabgacha ta'limgiz kafedrasini vazifasini bajaruvchisi (PhD)

Tayanch so'zlar: bolalar, didaktik o'yinlar, noan'anaviy, interfaol o'yinlar, mantiqiy fikrlash, rivojlantirish, faoliyk.

Ключевые слова: дидактические игры, нетрадиционный, интерактивные игры, логическое мышление, развитие, активность.

Key words: didactic games, non-tradition, interactive games, logic thinking, development, activity.

Maktabgacha ta'limgiz muassasasi uzluksiz ta'limgizning birinchi qadami bo'libgina qolmay, balki faol, ijodkor va ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvchi ilk pog'ona hamdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha

ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori bunga dalildir. Maktabgacha ta'lim muassasa (MTM)larda ta'limtarbiya jarayonini yuqori saviyada tashkil etish tarbiyalanuvchilarga ta'limning keyingi bosqichlarida qiyalmasdan davom ettirishga imkoniyatlar yaratadi.

Bugunga kelib xorijiy mamlakatlarda, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarini ingliz tiliga o'rgatish borasida ko'plab ta'lim dasturlari ishlab chiqarilmoqda. Masalan, Rossiya mutaxassislari M.N. Yevseyeva, T.V. Zemchenkova, L.L. Likova, I.A. Shishkova va boshqalar tomonidan maktabgacha ta'lim muassasasi bolalariga ingliz tilidan saboq beruvchi dastur ishlammalari taklif etildi. Ushbu dasturlar o'zida bolalarga mo'ljalangan ingliz tilidagi so'z va iboralarни, she'rlar, qo'shiqlar va turli xil interfaol o'yinlarni mujassamlashtirgan. Kitobdag'i mavzular ko'proq fonetika va leksikaga qaratilgan.

Dastur ishlanmasi "Firststeps" ("Birinchi qadam") deb nomlangan va u 2007–2010 yillari tahrirlangan "Step by step" nomli o'quv dasturini amalga oshirishga asoslangan. "Step by step" o'quv dasturi 5–7 yoshli maktabgacha ta'lim muassasasirig tarbiyachilariga mo'ljalangan. Rossianing «Pchelka» nomli bog'chasida amalda sinovdan o'tgan ushbu o'quv dasturi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda yuqori ko'rsatkichlarga erishish mumkinligini isbotladi.

"Firststeps" ("Birinchi qadam") dasturining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – unga asoslangan ta'lim jarayoni ingliz ertak qahramonlari (Winnie the Pooh, Tiger, Piglet, Donkey) bilan sirlari o'rmoniga sayohat tzarida tashkil etilgan. Har bir mavzu qiziqarli hikoyalarga boy bo'lib, avvalgi darsni mantiqan davom ettiradi. Bolalarda ingliz tiliga kuchli qiziqish uyg'otish maqsadida, turli ko'ngilochar o'yinlar, qiziqarli topishmoqlar, she'rlar, qo'shiqlar, dialogli suhabatlar ishlataligan. Bolalar sonining 5-8 tadan 10-12 tagacha bo'lishi talab etiladi. Muallifning dasturi doirasida 4-5 daqiqa davomida tanaffus e'lon qilinib, qo'shiq kuylash, raqsga tushish majburiy hisoblanadi.

Undan tashqari xorijiy tajribadan kelib chiqib quyidagi tartibni keltirish mumkin. O'yin qoidasini bolalar o'zlarini o'yin jarayonida belgilashadi. Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi.

Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish «Bolajon»da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida etakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

O'yinda bola shaxsi ning hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarakatrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabati ni bilib olish mumkin.

Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yiniga qiziqishini, tashqilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi.

O'yin bolalarni jismoniy tomonidan tarbiyalash sistemasida, MTMning ta'limtarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama tarbiyalashda katta o'rincutadi.

O'yinda bola organizmiga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik

ortadi, bardamlik, tetiklik, guvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o‘yin munosib o‘rin egallaydi.

O‘yin ta’lim va mashg‘ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib juda katta ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o‘yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi. bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurimi, hayolini, diqqatini, xotirani faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o‘rganadi, o‘ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o‘ylab topadi, o‘z bilimlaridan foydalinish va uni so‘z bilan ifodalashga o‘rganadi.

O‘yinda aks ettirayotgan narsani bili bolishga qiziqish uyg‘onadi. Ko‘pincha o‘yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini. bilim doirasini kengaytirish uchun hizmat qiladi. Ijodiy o‘yi nni tor didaktik maqsadlarga bo‘ysindirib bo‘lmaydi, bu o‘yin yordamida juda katta vazifalar hal qilinadi.

Qoidalı o‘yin bolaning sensor rivojlanishini, taffakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xii harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidalı o‘yin ma‘lum didaktik maqsadga ega bo‘lib, bolani umumiyo rivojlantrishga qaratilgan bo‘ladi. Ta‘limming o‘yin shaklida bo‘lishi muhim ahamiyaiga ega bo‘lib bolaning umumiyo rivojlantrishga qaratilgan bo‘ladi. Ta‘limming o‘yin shaklida bo‘lishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bolaning yosh xususiyatlariha mos keladi. Qiziqarli o‘yin bolaning aqliy faolligini oshiradi, o‘yinda bola mashg‘ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu ta‘lim butunlay o‘yin shaklida bo‘lishi kerak degan gap emas. Ta‘lim turli usullar va metodlarni qo‘llashni talab etadi. O‘yin ta‘limming shakllaridan biri bo‘lib, boshqa bir metod bilan qo‘sib olib borilgandagina yaxshi natija beradi, bular kuzatish, suhbat, so‘zlab berish va hakozolar.

Bola o‘ynayotib o‘z bilimidan foydalinishni, uni har xil sharoitda ishlata bilishni o‘rganadi. Ijodiy o‘yinlarda bolalarning fantaziysi, buyum yasashi, tajriba qilishiga keng yo‘l ochiladi.

O‘yinda aqliy rivojlanish bilan birga axloqiy sifatlar ham shakllanadi. O‘yin jarayonida yuz bergan kechilmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o‘yin bolada yaxshi hislarni, ulug‘vor orzular va intilishlarni, qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi.

O‘yin mustaqil faoliyat bo‘lib, bu jarayonda bolalar o‘z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiyo maqsad, unga erishishdagi umumiyo kechilmalar birlashtiradi. Shuning uchun o‘yin do’stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhimdir. Birgalikdagi o‘yin bilan birlashgau kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o‘yinga jalb qilish, bolalar o‘rtasida do’stlikka, haqqoniylikka, o‘rtoqlarini javobgarligini sezishga asoslangan munosabatlar o‘rnatishdan iborat. O‘yin mehnat tarbiyasi vazifasini bajarishga ham yordam beradi. Bolalar o‘z o‘yinlarida har xil kasbdagi qishilarni aks ettiradilar. Bu bilan ular kattalarning harakatlariga taqlid qilib qolmay, shu bilan bir qatorda ularning ishiga mehnatiga bo‘lgan munosabatlarini ham aks ettiradilar. O‘yin bolada ko‘pincha mehnat qilish xoxishi uyg‘otadi, o‘yin uchun keraqli narsalarni tayyorlash va yasashga majbur qiladi. Bolalar har xil mashinalar yasaydilar va texnik o‘yinchoqlar bilan o‘ynaydilar.

O‘yin estetik tarbiyaning muhim vositasidir. O‘yinda ijodiy hayol, fikrlesh qobiliyatini yuzaga keladi va rivojlanadi. To‘g‘ri tanlangan o‘yinchoq badiiy didni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatlari o‘yinlarda harakatning go‘zalligi va maromi bolalarni o‘ziga maftun qiladi.

O‘yinning katta tarbiyalovchi ahamiyati o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi. O‘yin befoyda, hatto zarali bo‘lishi, ba’zan yomon hislarni qo‘zg‘atishi mumkin. Tarbiyachi o‘yin

yordamida bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifasini amalga oshirish uchun unga muntagaz ravishda ta'sir etib borishi zarur.

Bu vazifani hal etishda o'yin bolalar bog'chasidagi ta'lim-tarbiyaviy ishning hamma tomonlari bilan bog'langan bo'lishi kerak. O'yinda bolalarning mashg'ulotlarda olgan bilim va malakalari aks etadi va rivojlantiriladi, ular orqali esa bola hayotga o'rgatiladi. Ikkinchisi tomonidan, o'yinda tarbiyalangan sifatlar faoliyatning boshqa turlariga ko'chi riladi.

Bolalarning narsalar, ularni sifati to'g'risida bilimlarni mustaxkamlash uchun har xii o'yinchoqlar, suratlar, uy-ro'zg'or buyumlaridan foydalaniladi.

O'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar. «Xaltachada nima bor?» o'yinining maqsadi o'yinchoqlaring nomlari bilan tanishtirish va bu o'yinchoqlar to'g'risida bilimlarni mustaxkamlash, tovushlar talaffuzini mashq qildirishdir. «Bu nima?» o'yinida bolalar qo'g'irchoqqa har xii narsalar va ularni ishlatalishi to'g'risida gapirib beradilar. Bunday o'yin guruhi, bog'cha maydonchasi, uxlash xonasida o'tkazilishi mumkin.

Didaktik o'yinlarda tarbiyachi bolalarni faqat narsalarning nomi va ular nimaga keraqligi bilan tanishtiribgina qomay, balki shu narsalarning shakli, rangi, katta kichikligi, fazoda tutgan o'rni xaqida ham tanishtiradi.

Har bir buyum va o'yinchoq o'zining aniq tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi kerak, o'yinda esa qo'yilgan maqsad narsaning asosiy begisini ajrata bilishga imkon tug'dirishi lozim.

Bunday talabga xalq o'yinlari o'z shakliningi aniqligi, rangining tiniqligi bilan ko'proq javob bera oladi.

Bolalarni aqliy vazifalanii bajarishga undaydigan o'yinlar ham katta ahamiyatga ega.

Bolalarning rang xaqidagi tushunchalarini mustaxkamlash va aniqlash uchun quyidagi o'yinlar o'tkaziladi: sharlarni rangiga qarab to'plash, «Dumalojni dumalatish», xalqachalarini ipga o'tkazish, «Shu rangdagi dumalaojni dumalatish», «Kimda mana bu rangdagi xalqacha bor», «Kim mana bu rangdagi xaltachani topa oladi» va x.k ..

Qo'g'irchoq bolalarning eng sevimli o'yinchoqlaridan biri. Har bir bolalar bog'chasida didaktik jixozlangan o'yinchoq bo'lishi kerak. Qo'g'irchoq jixozlariga kiyim, ichki kiyim, poyafzal, idish-tovoq, mebel o'yinchoqlar kiradi.

Qo'g'irchoq bilan quyidagi o'yinlarni o'tkazish mumkin: «Qo'g'irchoqni kiyintirarniz», «Qo'g'irchoqni sayrga otlaniramiz», «Qo'g'irchoqni mexmon qilamiz». «Qo'g'irchoqlar bayrami», «Qo'g'irchoqning tug'ilgan kuni», «Qo'g'irchoqni uxlatalamiz».

O'yinlar topishmoqlar bilan qo'shib olib borilganda qiziqarli bo'ladi. Masalan, «Qo'g'irchokni uxlatalamiz» o'yinida qo'g'irchoqqa karovat tayyorlayotganda tarbiyachi «Uzun, yumshoq, yo'l-yo'l...» (matras), «Oq, toza, to'rt burchak ...» (yastiq), «Paxtali issiq ...» yoki «junli issiq» (adyol) va boshqa topishmoqlarni aytishi mumkin. Qo'g'ichoqning karovati tayyor bo'lgandan keyin qo'g'irchoqni yotqizib, «alla aytadi.

Mebellarning nimaga ishlatalishi, o'yinchoqlarning nomini mustaxkamlash uchun «Qo'g'irchoqqa xona yasatamiz», «Qo'g'irchoqqa o'yinchoq sovg'a qilamiz» kabi o'yinlarni o'tkazish mumkin.

Tarbiyachi bolalarni narsalar, ularning nomlari, belgi sifatlari, nimaga ishlatalishi bilan tanishtiribgina qolmay, muyyan predmetlar orqali ularni oddiy turlarga ajratishni o'rgatib boradi; ayiq, qo'g'irchoq, quyon-o'yinchoqlar; kastryulka, tarelka, choynak-idish-tovoq.

O'yinlarni narsa va buyumlarni tasvirlovsiga rasmlar orqali ham o'tkazish murunkin. Bo'larga «Bu narsa o'zi to'g'risida nirma deydi?», «Kim birinchi bo'lib aytib beradi?» (bolalarni diqqatini rivojlantirishga qaratilgan qo'g'irchoq, narsa va ularning shakli, rangi to'g'risida), «Kim bo'ladi?» «Qaysimi bir xil?» kabi o'yinlarni ko'rsata bo'ladi.

Bolalarning tabiat to'g'risidagi bilimlarni mustaxkarnlash uchun «Hidiga qarab top», «Mazasiga qarab top», «Ushlab ko'rib top »! Kim nimani eshitayti? kabi o'yinlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Kichik yoshdagagi bolalar bilan so'zli o'yinlar o'tkazilmaydi

Katta va taylorov guruhlarida didaktik o‘yinlar o‘zining mazmun va g‘oyasi jixatidan ancha murakkabdir. Bu yoshdag‘i bolalar bilan buyum va rasmlar bilangina didaktik o‘yinlar o‘tkaza qolmay, so‘zli didaktik o‘yinlar ham o‘tkaziladi. Buyumlar va rasmlar bilan o‘tkaziladigan didaktik o‘yi nlarda bolalarning narsalar sifati, xususiyati, nimadan yasalgani, qayerda qilingani, nima uchun keraqligi va xakozolar to‘g‘risidagi bilimi aniqlanadi hamda mustaxkamlanadi. Bunday o‘yinlaga quydagilarni misol qilib keltirish mumkin:»Nima nimadan yasalgan?», «Guruh xonasiga sayoxat», «Ovoziga qarab top» va boshqalar.

Umumlashtirishga o‘rgatish bo‘yicha turlarga ajratish o‘rgatuvchi o‘yinlar katta o‘rin egallaydi. «qaysi fabrikada nima ishlar bajariladi?», «Fabrikada nima ish qilinadi, dalada nima etishtiriladi?», «Kimga nima kerak» «Kim nima bilan ishlaydi?», «Qayerda o‘sadi?», «Sayoxat»(shahar bo‘lab, dalaga maktabga va hokazo), «Pochta» va boshqalar. O‘yinni tashkil etishda muhim masalalardan biri – o‘ynovchilarni guruhlarga biriktirishdir. Guruhlarni tuzishda quyidagi talablariga rioya qilinadi:

- 1) guruhlardagi bolalar soni – besh kishidan oshmasligi;
- 2) har bir guruhdagi bolalarning bir-birini yaxshi tanishi, o‘zaro munosabatlarining yaxshi bo‘lishini hisobga olish;
- 3) o‘ynovchilarga vazifalarni taqsimlashda ularning qiziqish va qobiliyatini hisobga olish.

Xulosa chiqaruvchi yoki hakamlik qilayotgan tarbiyachi o‘yin tugagandan so‘ng natijalarini umumlashtiradi, yakunlaydi va xulosalarini bayon qiladi.

Xullas, maktabgacha ta‘lim muassasalarida ta‘lim berishda didaktik loyihalashtirish keng qamrovli yaxlit muammo va uni o‘rganish, amaliyotga tatbiq qilish lozim. Chunki, yoshlar uchun mo‘ljallangan mashg‘ulotlar bolalarda jarayonga qiziqish uyg‘otishi hamda sog‘lom shakillanishi uchun zamin bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Voxidov M. Bolalar psixologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1981. – 366 b.
2. Daminova M., Adambekova T. O‘yin mashg‘ulotlari. – T.: O‘qituvchi, 1993. – 96b.
3. Yoralieva U.Q. Maktabgacha ta‘lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari va unda interfaol usullardan foydalanishning imkoniyatlari// Zamonaviy ta‘lim jurnali. – T., 2014, 9-son. – 27 b.
4. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya/ Pod red. V.A.Slastenina. – Moskva: Akademiya, 2005. – 37s.
5. Palmer H. Scientific study and teaching of languages. – London, 1922. – 243 p.

РЕЗЮМЕ

Maqolada maktabgacha ta‘lim tizimiga yangicha yondashuv asosida noan’anaviy darslarni tashkil etishning mazmun-mohiyati, bog‘cha yoshidagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda yangi texnologiyalardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati bayon qilingan. Dars jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish, uning bolalar tomonidan mavzularni samarali o‘zlashtirilishiga ta‘siri asoslangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье на основе нового подхода к системе дошкольного образования изложены место и значение современных технологий в образовании, суть организации нестандартных занятий. Также в ней обосновано влияние дидактических игр в процессе занятий на эффективность усвоения изучаемого материала обучающимися.

SUMMARY

There are discussed the place and value of new technologies in education, an essence of the organization of non-standard lessons on the basis of the modern approach to an education system. The influences of didactic games in the case studies efficiency of training material by children adaptation is provided.